

**HARBIY XIZMATCHILARDA IJTIMOIIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHI
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.**

***DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN MILITARY SERVANTS AS A
PEDAGOGICAL PROBLEM.***

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchisi
Tog'ayev Javlonbek Shuhrat o'g'li

ANNOTATSIYA Ushbu maqola harbiy xizmatchilarda ijtimoiy intellektning bugungi kunda ahamiyati, dolzarb masala ekanligi haqida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari keltirilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari miqyosida keng doirada o'rganilayotgani haqida qarashlar bayon etilgan. Bundan tashqari harbiy qismlarda olib borilayotgan ijtimoiy intellekt masalalari ham chetda qolmagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

KALIT SO'ZLAR: harbiy, Qurolli Kuchlar, xarakatlar, globallashuv, dolzarb, harbiy xizmatchi, yosh askarlar, o'rgatish, harbiy qism, intellekt, ijtimoiy intellekt, ijtimoiylashuv, yosh davrlari, shaxslararo munosabatlar, muloqot, muloqat madaniyati, rivojlantirish.

ANNOTATION: This article presents the scientific views of local and foreign scientists about the importance of social intelligence in military personnel today, and the fact that it is an urgent issue. It is also stated that it is being widely studied at the level of the Armed Forces of Uzbekistan. In addition, it is no exaggeration to say that the issues of social intelligence conducted in military units are not left out.

KEY WORDS: military, armed forces, movements, globalization, dolzarb, military serviceman, young soldiers, training, military unit, intelligence, social intelligence, socialization, age periods, interpersonal relations, communication, communication culture, development.



KIRISH

Dunyoda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois 2 milliarddan ortiq yoshlarning [1] ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan kurash avj olmoqda. Bundan tashqari yosh harbiylarning huquqiy madaniyatining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berishi munosabati bilan mazkur masala Qurolli Kuchlar miqyosida tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [2]. Mustaqil O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya tizimi – bu o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xarakteri, axloq qoidalariga va milliy istiqlolning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi ijtimoiy kompetensiyalari shakllangan yosh harbiy xizmatchilarini yanada aniqroq qilib aytganda vatanparvarlarni tarbiyalashning pedagogik jarayonidir. Mazkur ilmiy tahlillar bugun zamonning o'zi yosh harbiy xizmatchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning yangi innovatsion, optimal, axborot texnologiyalari yordamiga tayanadigan yangicha uslubdagi ta'sirchan targ'ibot usullarining ilmiy asosini yaratish masalasini kun tartibi darajasiga qo'ymoqda. Bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning katta qiziqishini orttirgan masala ijtimoiy intellekt mavzusi bo'lib, mazkur muammoga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Inson hayoti va faoliyati davomida atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlarni samarali va ijobiy olib borishga intiladi. Bugungi kunda har bir sohada raqobatbardoshlikni talab qilinadigan bir paytda shaxslararo munosabatlarni ijobiy amalga oshirish bo'yicha ham qator muammolar ham ko'zga tashlanmoqda. Mazkur muammoga samarali echim sifatida shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash, ijtimoiy moslashuvchanlikni qaror toptirish talab etiladi. Eng avvalo, yosh harbiy xizmatchilarining ijtimoiy intellekti masalasini bayon etishdan avval umumiy intellekt tushunchasiga to'xtalib o'tish zarur.



ADABIYOTLAR TAHLILI:

“Intellekt” lotin tilidan olingan bo‘lib, aql, idrok, zehn ma’nolarini anglatadi. Intellekt insonning bilish qobiliyati, fikrlash, anglash, tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi. U ma’naviyatga yaqin bo‘lib, insonning ruhiy hissiy tuyg‘usi, bilish qobiliyati va aql-zakovati, aqliy yetukligi va yuksaklikka intilishi bilan uyg‘unlashadi [3, b-12]. “Pedagogika” ensiklopediyasida intellekt tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: Intellekt kishilarning aqli, idroki, zakovati, ma’naviy jihatdan yetuklik darajasini ham ifodalaydi; tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, tushuncha, hukm va.h.k.) orqali asosli bilimga ega bo‘lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etish qobiliyatini ham anglatadi. Tafakkur tarixida intellekt to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar turlicha bo‘lgan. Intellekt ma’naviyatga ta’aluqli bo‘lgani uchun ruhiy holat mahsuli sifatida irodadan ustun turadi, degan tasavvurlar mavjud. Intellektual resurs insonlarda bilim, hayotiy

tajriba va idrok hamda zehn asosida, avvalo, o'z aqliy omilkorlik salohiyatini, turmush tarzini turli yo'nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir [4,b-222]. Ijtimoiy intellektning yuzaga kelishida umumiy intellektning barcha elementlari bevosita ishtirok etadi: tafakkur, tafakkur turlari, analiz, sintez, hayol, taqqoslash, xotira va uning turlari. Ijtimoiy intellekt tushunchasiga oid qarashlar tarixiy asosga ega bo'lib, eng qadimgi yozma manbalardan oq bunga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi – "Avesto"da ijtimoiy intellektning mohiyatini ochib beruvchi qator ma'lumotlarga guvoh bo'lish mumkin. Pedagog olim S.Nishonova o'zining "Komil inson tarbiyasi" monografik asarida eng qadim zamonlardan boshlab insonni shakllantirishning mezon sifatida: aqliy etuklik – sog'lom fikr, yuqori iste'dod, salohiyat; ma'naviy-axloqiy yuksaklik; jismoniy yetuklik – badan tarbiya, dilbarlik tarbiyasi; nafosat tarbiyasiga ajdodlarimiz alohida ahamiyat qaratganligini ta'kidlab, "Avesto"da – inson mehnati tufayli barcha yomon hislat, yomonlik hamda yovuzliklardan qutulish mumkinligi asosiy g'oya sifatida ilgari surilganligini qayd etib o'tgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar hamda buyuk bobokalomimiz Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburlar yosh harbiy xizmatchilarining ijtimoiy intellektini oshirish tuzumi, davlatning gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan muhim insonparvarlik va ijtimoiylashuv g'oyalarini ilgari surishdi hamda ijtimoiy intellektni rivojlantirish bosqichlari, mezonlari va tamoyillarini ishlab chiqishgan. Forobiy o'zining ijtimoiy g'oyalariga ko'ra nihoyat darajada taraqqiyparvar va insonparvardir. U insonni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi va odamlar orasidagi hamkorlikdagi munosabatlar ularning qiziqishlari, xohish-istaklari va o'zaro birlashuvi asosida yuzaga chiqadi, deb hisoblaydi. Forobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o'z ixtiyoriga binoan faoliyat ko'rsatib, o'z baxtini o'zi yaratadi, taqdirini o'zi hal etadi. Yaratilishda insonlar bir xil, lekin tarbiya, muhit ta'siri ostida ular o'zgaradilar. Olim bu o'rinda tarbiyaga katta ahamiyat beradi [5]. Ijtimoiy intellekt tushunchasi birinchi marta 1920 yili E.Torndayk tomonidan fanga kiritilgan.

U mazkur tushunchani "shaxslararo munosabatlarda ongli, o'ylab, oqilona harakatlar bilan muloqotda bo'lish", deb tushuntirgan. E.Torndayk ijtimoiy ong(aql)ni odamlar bilan muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan o'ziga xos kognitiv qobiliyat deb hisoblagan hamda yosh harbiy xizmatchilarining ijtimoiy intellektiga ham muhim ahamiyat qaratgan. Bundan tashqari ijtimoiy aqlning asosiy vazifasi muloqot jarayonidagi hatti-harakatlarni oldindan his eta olishdir. Ijtimoiy intellekt umumiy intellektning bir turi hisoblanadi [6, b-57-60]. V.N.Drujinina, YU.N.Emilyanova, A.L.YUjaninova, V.N.Kunitsina, E.S.Mixaylova va boshqa tadqiqotchilar olib borilgan ilmiy izlanishlarda ijtimoiy intellektning samaradorligini oshirish qobiliyatlarini belgilashlari [7, b-84-87] ga alohida e'tibor qaratgan.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

M.I.Bobneva harbiy xizmatchilarda ijtimoiy intellektni muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sir muhitida shakllanuvchi insonning alohida qobiliyati sifatida baholash kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek, muallif harbiy xizmatchilar orasida ijtimoiy intellekt va umumiy intellektni farqlashga harakat qiladi: Askarlarda umumiy intellektual rivojlanish to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy intellekt darajasi bilan bog'liq emas. Yuqori intellektual daraja inson uchun zarur hisoblanadi. Biroq shaxsning balki harbiylarning ham ijtimoiy rivojlanishi uchun yetarli shart bo'la olmaydi. U ijtimoiy rivojlanishga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari yuksak intellekt egasi ijtimoiy muhitda noodativ hatti-harakatlari va xulq-atvori bilan qadrsizlanishi mumkin [8,b-312]. A.L.Yujanina ijtimoiy intellektni harbiylar orasida amaliy va mantiqiy intellekt bilan bir qatorda ko'rib chiqadi. Oxirgi ikkitasini u sub'ekt-ob'ekt munosabatlari doirasida kiritadi. Harbiy ijtimoiy intellektni esa, sub'ekt doirasiga qo'shadi. Muallif, harbiy ijtimoiy intellekt – bu uch o'lchovda ko'riladigan alohida ijtimoiy qobiliyatdir, degan xulosaga kelgan:

1. Harbiy ijtimoiy-shaxsiy qobiliyatlar – insonning individual xarakterini ifodalash imkoniyatini ta'minlovchi to'liq shaxslik qurilmasidir. Uning xususiyatlari his hayajonlilik doirasidagi psixik jarayon va vaziyatlarga ko'chib o'tadi. Shuningdek, uning atrofdagilar bilan munosabatida xarakterini anglashdagi aniqligidir. Biroq, refleksiyaning ijtimoiy-shaxsiy jarayonlar bilan aloqasini ham e'tiborga olish lozim. Shuning uchun ushbu hodisaning psixologik mazmunini, o'z-o'zini anglash qobiliyati, ya'ni o'zining individual shaxslik sifatlarini anglash, xatti-harakat ruhlantirishlari va o'zini boshqalar tomonidan qabul qilinishidagi xarakterini ham hisobga olish zarur.

2. Harbiy ijtimoiy tasavvur – bu insonning balki harbiylarning ham tashqi belgilari asosida kishilarning individual va shaxslik xususiyatlarini modellashtirish qobiliyatidir. Shuningdek, kelgusidagi o'zaro ta'sir xususiyatlarini aniq ko'ra bilish, aniq vaziyatlarda insonning hatti-harakati xarakterini bashorat qilish qobiliyati hamdir.

3. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi muloqotning ijtimoiy texnikasi – bu vaziyatni idora qilish va o'zaro ta'sir shaxslik sifatini yo'naltirish, o'zining rolini o'ziga qabul qilish mahoratida namayon bo'luvchi «harakatdagi» ko'rinishidir. Bu esa harbiy xizmatchilardan muloqat texnikasi va vositasini talab qiladi



XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, A.L.Yujaninova umumiy va harbiy ijtimoiy intellekt munosabatlariga ham to'xtalib o'tgan. Ko'pchilik tadqiqotlar natijasida A.L.Yujaninova shunday xulosaga keladi-ki, harbiy ijtimoiy intellekt umumiy intellektga bog'liq emas, lekin uning rivojlanish darajasi insonning moslashuviga ta'sir ko'rsatadi: harbiy ijtimoiy intellekt qanchalik yuksak bo'lsa, nafaqat inson harbiylar ham shunchalik moslashuvchan bo'ladi. Psixikaning ushbu tomonining ahamiyati ko'p sonli misollarda ko'zatiladi. Qachonki, moddiy dunyo hodisalarini o'rganishda yuksak muvaffaqiyatlari bilan ajralib turuvchi insonlar (yuqori umumiy intellekt sohiblari yani vatanimiz himoyachilari harbiylar) shaxslararo munosabat doirasida ojiz qolishganida bu yaqqol ko'rinadi. Shu tarzda harbiy ijtimoiy intellekt ijtimoiy moslashuvchanlik va muloqotchanlikni belgilab beruvchi integral intellektual qobiliyatdir desam maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi vaqtda dunyo taxlikali holatda turibdi. Bu esa har bir harbiy xizmatchida xushyorini talab qiladi va har bir shaxsda hoh u harbiy bo'lsin hoh u fuqaro bo'lsin yanada kuchliroq mas'uliyatliroq bo'ladi. Bu gaplarim bilan nima demoqchiman “vatan bu muqaddas makonimiz, tug'ulib o'sgan joyimizdir unda ota-onalarimiz, opa-singillarimiz, aka-ukalarimiz hayot kechirib kelishmoqdalar. Shuning uchun ham bu makonni himoya qilish, asrash biz sharaflı burch

hisoblanadi”. Biz albatta bu natijalarga erishishimiz uchun manan yetuk va intellektimiz yuqori bo‘lishi kerak. Bu uchun albatta tinimsiz bilim va ko‘nikmalarimizni oshirib borishimiz kerak deb hisoblayman. Men tug‘ulibmanki harbiy bo‘lishni istadim va hudoga shukurki men hozirda harbiyman

va bundan faxrlanaman. Men qo‘l ostimdagi bo‘ysinuchilarimning bilimlarini ularning jismoniy sifatlarini hamda yuksak intellektual qobiliyatlarini oshirish uchun bor kuch g‘ayratim bilan xarakat qilib kelmoqdaman. Bu albatta bo‘ysinuchilarim va men uchun juda ham foydali ish deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https // news./un. org/ 565442-government-bodies-must-serve-people-uzbekpresident](https://news.un.org/565442-government-bodies-must-serve-people-uzbekpresident)
2. Problemi grajdanskogo obshchestva. Ejemesyachnyy obzor zarubejnoj literatury. – 2018. – №9 (14).
3. Shayxova X. Intellektual salohiyat – taraqqiyat mezon. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B.12.
4. Qoraev Samaridin Barakaevichning. Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 01, 2020 ISSN: 1475-7192 1734-1742 page.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
6. Fedorenko A.V. Sotsialnyy intellekt: Sushnost i problemy u studentov pedagogicheskix spetsialnostey//Vestnik Voennogo universiteta. 2011.№4 (27).S.57-60.; Prakticheskiy intellekt / Robert Dj. Sternberg, Djordj B. Forsayt, Djennifer Xedland i dr. SPb.: Piter, 2002. – 265 s.
7. Bobneva M. I. Sotsialnyye normy i regulyasiya povedeniya / M. I. Bobneva. – M. : Nauka, 1998. – 312s.